

O'ZBEKISTON TARIXIY SHAHAR MARKAZLARI DIZAYNI STRATEGIYALARI  
VA SHAHARNI QAYTA TIKLASH USULLARI**Reyimbaev Shuhrat Sa'dullaevich**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. dotsenti Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

E-mail: info@taqu.edu.uz [shuh\\_1977@mail.ru](mailto:shuh_1977@mail.ru) ORCID 0009-0006-2069-0995

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash va dizayn strategiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shaharlarning madaniy merosini saqlash va zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqot davomida shahar regeneratsiyasi bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilib, O'zbekiston shaharlarini qayta tiklashga oid samarali yondashuvlar ishlab chiqildi. Asosiy e'tibor shahar arxitektura muhitini modernizatsiya qilish, ekologik muvozanatni saqlash, raqamli texnologiyalarni qo'llash hamda jamoatchilik ishtirokini oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar shaharlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qilib, ularning tarixiy qiyofasini saqlab qolishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari shaharsozlik siyosatini takomillashtirish va kelajakdagi loyihalarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы восстановления и формирования стратегий дизайна исторических городских центров Узбекистана. Сохранение культурного наследия городов и его гармонизация с современными требованиями является важной задачей. В ходе исследования изучен международный опыт градостроительной регенерации и разработаны эффективные подходы к восстановлению городов Узбекистана. Основное внимание уделено модернизации архитектурной среды, сохранению экологического баланса, применению цифровых технологий и повышению участия общественности. Эти подходы способствуют устойчивому развитию городов, позволяя сохранить их исторический облик. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования градостроительной политики и формирования будущих проектов.

**Annotation.** This article examines the issues of restoring and developing design strategies for the historical city centers of Uzbekistan. Preserving the cultural heritage of cities and harmonizing it with modern requirements is a crucial task. The study explores international experiences in urban regeneration and proposes effective approaches to the redevelopment of Uzbekistan's cities. The focus is on modernizing the architectural environment, maintaining ecological balance, implementing digital technologies, and increasing public participation. These approaches contribute to the sustainable development of cities while preserving their historical identity. The research findings are significant for improving urban planning policies and shaping future projects.

**Kalit so'zlar.** tarixiy shahar markazlari, dizayn strategiyalari, urbanizatsiya, madaniy meros, ekologik barqarorlik, shahar muhitini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar.

**Ключевые слова.** исторические городские центры, стратегии дизайна, урбанизация, культурное наследие, экологическая устойчивость, модернизация городской среды, цифровые технологии.

**Keywords.** *historical city centers, design strategies, urbanization, cultural heritage, ecological sustainability, modernization of urban environment, digital technologies.*

**Kirish.** O'zbekistonning tarixiy shahar markazlarini saqlash va qayta tiklash bugungi urbanizatsiya jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikada shaharlarni modernizatsiya qilish va ularning tarixiy merosini asrab-avaylash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqot O'zbekiston tarixiy shaharlarida dizayn strategiyalarini shakllantirish va shaharni qayta tiklash usullarini tahlil qilishga qaratilgan. Urbanistik muhitning doimiy o'zgarishi va aholining shahar makoniga bo'lgan talablarining o'zgarishi natijasida, tarixiy shahar markazlarini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba va O'zbekiston shaharlarini qayta tiklash bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilinib, samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Asosiy qism.** Shaharni qayta tiklash ishlari - ko'plab rivojlangan davlatlarda keng qo'llaniladigan, shaharni o'zgartirish strategiyasiga aylandi. 2017-yildan boshlab qayta tiklash ishlari shahar siyosati kun tartibida jamoatchilik e'tiborini kuchaytirdi. Yangi O'zbekistonning jamoatchilik qiziqishi va muhokamasiga sabab bo'ldi. Qayta tiklanib borayotgan shahar markazlari, eski sanoat ob'ektlari, turar-joylar va shaharlarning tarixiy madaniy merosiga putur etkazgan mahallalarni jonlantirish maqsadida shahar regeneratsiyasi loyihalari amalga oshirildi. Shahar unda yashovchi insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotining ko'zguisidir. Asrlar davomida shaharlarning jismoniy va fazoviy tuzilmalarida sodir bo'lgan o'zgarishlar ijtimoiy hayotning o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan ularning qiymati va mazmunidagi o'zgarishlariga to'g'ri keladi. Ko'plab mamlakatlar shaharni qayta qurishda strategiya sifatida barqaror shaharni saqlashda foydalanish uchun turli usullarni sinab ko'rди va bulardan biri regeneratsiyadir. Shaharlarni qayta tiklash demografik, jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy o'lchovlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon sifatida tushuniladi.

O'zbekiston tarixiy shaharlaridagi shahar madaniy merosi doimiy ravishda vayron qilinmoqda va tarixiy hududlarni qayta tiklash va shahar merosini saqlash milliy rejalashtirish siyosati, strategiyalarni amalga oshirishni tartibga solish va ijtimoiy-siyosiy choralarning yo'qligi sababli ko'plab jiddiy muammolarga duch kelmoqda [2]. So'nggi yillarda Respublikamizning barcha shaharlarida, xususan, tarixiy shahar markazlarida shaharni qayta qurish loyihalarining tezlik bilan amalga oshirilishi ushbu loyihalarning muvaffaqiyat darajasi va loyihalar jismoniy, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etish nuqtai nazaridan qanchalik samarali ekanligi haqidagi savollarni tug'dirmoqda. Tanazzulga yuz tutayotgan va eskirgan shaharlar ehtiyojlariga javob berish va bu hududlarning muammolariga kompleks yechim toppish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy darajada shaharni qayta tiklashda baholashni ishlab chiqish hamda mavjud ilmiy tadqiqot ishlarni ko'rib chiqish orqali ushbu yondashuvlarni kengroq jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kontekstlarga joylashtirish va mavjud muammoarga yangi yondoshuvlarni kiritishdir [3].

Tadqiqot natijasi O'zbekistonning tarixiy shahar markazlarida barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan shaharni qayta tiklash loyihalarini baholash strategiyasini, shuningdek, kontseptual asosni amalga oshirishga imkon beruvchi umumiy tavsiyalarni taklif qilishga qaratilgan bo'lib me'moriy yodgorlik muhitlari qulaylik jihatlarni, estetik barqarorligini ta'minlashda shahar hududlarini me'moriy dizaynini tartibga solish vositalaridan foydalanish usullari takomillashdagi

ishlab chiqilgan me'yoriy taklifi loyihalari Qurilishda texnik meyorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot institutining kelgusi faoliyatida quyidagilar zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy-madaniy meros hududlarini obodonlashtirish:

Madaniy meros obektlarida amalga oshirilgan barcha obodonlashtirish ishlarini yagona birlikka kiritilishi kerak.

texnologik jarayon quydagicha belgilanadi:

- loyihadan oldingi tadqiqotlar;
- landshaft memorchiligi va landshaft bog'dorchilik sanati asarlarini saqlash bo'yicha ishlarni bajarish uchun ilmiy va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish.

Landshaft arxitekturasi va bog'dorchilik sanati asarlarini saqlash, tamirlash, restavratsiya qilish, zamonaviy foydalanishga moslashtirish bo'yicha ishlarni bajarish uchun ilmiy va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish tarkibi va tartibi GOST 55935 – 2013 ga muvofiq belgilanadi.

Landshaft memorchiligi va bog'dorchilik sanati obektini zamonaviy foydalanishga moslashtirish - obodonlashtirish, muhandislik-texnik taminot tizimlarini tartibga solish, to'siqlarni o'rnatish, kichik memoriy shakllarni (dekorativ va kommunal) qurish - panduslar, zinapoyalar, tayanch devorlari, ko'priklar, skameykalar, obektlarning yong'in xavfsizligi, sanitariya, ekologik va estetik holatini va mazmunini yaxshilash, shuningdek, barcha toifadagi aholi uchun ulardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun pavilyonlar, chiroqlar, favvoralar, chiqindi qutilari, yo'llar tarmog'ini yotqizish va boshqalar. obektning tarixiy, badiiy va estetik ko'rinishini saqlashi kerak.

turli maqsadlardagi shahar ichki muhiti, binolar va inshootlar, ko'kalamzor hududlar, yo'l-bo'yi hududlari, reklama konstruksiyalari uchun arxitektura-dizayn yechimlari ishchi loyihalarini tuzish hamda ularni tartibga solish tarkibi va qoidalarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabr kunidagi PF-6119-sonli Farmonining 7-bandida belgilangan:

2022 yil 1 iyulgacha shahar muhiti elementlarining maqsadi, an'anaviy arxitektura va madaniyati, shuningdek, joyning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy "dizayn-kod"ning ishlab chiqilishi va joriy etilishi orqali O'zbekiston shaharlari hududlarini o'ziga jalb etuvchi estetik ko'rinishga ega bo'lgan arxitektura muhiti dizaynini yaratish, kichik me'moriy qurilmalar tizimini har bir hududning an'anaviy arxitektura, madaniyati va madaniy meros elementlar asosida ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Prezident farmoni bilan, O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasi taqdim etildi.

Strategiyaga asosan, 2025 yilga borib O'zbekiston shaharlarining barchasini bosh rejalar bilan qamrab olish belgilandi va bosh rejalarni tasdiqlashda jamoatchilik fikri inobatga olinishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda dizayn kodi odatda belgilarni joylashtirish qoidalari sifatida tushuniladi, ammo dizayn kodi shaharning umuman qanday ko'rinishini aniqlashi mumkin ya'ni tashqi reklama qanday bo'lishi, binolarning fasadlarini qanday saqlash kerak, ko'chalar va jamoat joylarining ko'rinishini qanday rivojlantirish, qanday tashqi mebellarni o'rnatish va kichik me'moriy shakllar, shahar navigatsiyasi qanday ko'rinishga ega, ramzlar va ularni qanday qo'llash kerakligi to'g'risida o'rganadi. Shahar qanday qurilishini belgilaydigan shaharsozlik hujjatlaridan farqli ravishda dizayn kodi shahar qanday ko'rinishi kerakligini takidlaydi.

Dizayn kodidan foydalanish atrof-muhitning barqarorligini saqlab qolish bilan shahar muhitini rivojlantirishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqotda Dizayn kodlarni ishlab chiqishda quyidagilarni kirirish taklif etiladi.

Mahalliy rejalashtirish organlari dizayn kodning aniq maqsadlarini belgilaydigan xulosalarni yaratadi. Ushbu qarashlar kodni ishlab chiqish uchun quyidagi mezonlar belgilanishi kerak: mavjud hudud yoki joyni, uning tabiiy, topografik, tarixiy va madaniy meros xususiyatlarini baholash;

mavjud hudud o'ziga xosligi va ko'rinishi;

mavjud hududdan foydalanish va qurilmalar aralashmasi;

yashil maydonning miqdori va o'ziga xosligi;

hududning yo'l harakati, to'xtash joyi, piyoda va velosipedda harakatlanish bilan bog'liqligi;

hududning barqarorligi va energiya samaradorligi.

Hudud turlari - joyning mavjud xarakteriga, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik kelajakda ushbu hudud qanday rivojlanishi bo'yicha fikrlariga xam asoslanadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** O'zbekistonning tarixiy shahar markazlarida shaharni qayta tiklash va dizayn strategiyalarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya jarayonida tarixiy merosni asrab-avaylash va zamonaviy talablarni hisobga olish muhimdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shaharlarni qayta tiklash jarayonida quyidagi asosiy omillar e'tiborga olinishi lozim:

1. Shahar madaniy merosini asrab-avaylash – tarixiy obidalar va shahar muhitining o'ziga xosligini saqlab qolish, ularni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish.
2. Barqaror shahar dizayni – ekologik muvozanatni saqlash, yashil hududlarni kengaytirish va innovatsion landshaft dizayn elementlaridan foydalanish.
3. Jamoatchilik ishtiroki – shaharni qayta tiklash jarayonida mahalliy aholi va mutaxassislarning fikrlarini hisobga olish.
4. Texnologik yondashuvlar – raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalanib, shaharni qayta rejalashtirishni ilmiy asosda olib borish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Reyimbayev Sh.S. Madaniy merosning me'moriy-tarixiy muhitini saqlash, ta'mirlashning kompleks yechimi va ularni qo'llab-quvvatlash tizimini qayta tashkil qilish // Arxitektura, qurilish va dizayn. Ilmiy amaliy jurnal. Toshkent. 1/2024. (3-8 betlar)
2. Reyimbaev Sh. Adilov Z., [Socio-Ecological Factors of Formation of the Architectural Environment of Streets of Tashkent](#) / Middle European Scientific Bulletin 19/2021.
3. Reyimbaev.Sh.S. Salayev E.A. [Creating principles of constructing and preserving the monuments of "Deshan kala"](#). Educational Research in Universal Sciences 2024/1, (689-694) <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5690>.